



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 17-sentabr

461-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024 yil 12 sentyabrda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qishloq xo‘jaligi korxonalarini qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 28-avgustdagi PQ–304-son qarori ijrosi haqida”gi 420-6-0-Q/24-sonli qarori haqida

Qishloq xo‘jaligida soliq to‘g‘risidagi qonunchilik talablarini soddalashtirish va soliq ma‘muriyatchiligini takomillashtirish yo‘li bilan tadbirkorlik subyektlariga soliq yukini kamaytirish, mamlakatimiz hududlari o‘rtasidagi iqtisodiy tengsizlikni qisqartirish, tumanlar va shaharlarni ularning sharoitlari, salohiyati va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda yanada rivojlantirish hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qishloq xo‘jaligi korxonalarini qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 28-avgustdagi PQ–304-son hamda Namangan viloyati hokimining 2024 yil 12 sentyabrdagi 420-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

- Namangan viloyati hokimining 2024 yil 12 sentyabrdagi 420-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va amalda ijrosini ta‘minlash uchun qabul qilinsin.
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 28-avgustdagi PQ–304-son qarori bilan: Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Qishloq xo‘jaligi vazirligi va Soliq qo‘mitasining: shaharlar va shaharchalarning ma‘muriy chegaralarida joylashgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalari uchun ikki baravar miqdorida yer solig‘ini hisoblash tartibini bekor qilish; shaharlar va shaharchalarning ma‘muriy chegaralarida joylashgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalari uchun yer solig‘ini amaldagi qonunchilikdan kelib chiqib hisoblash tartibini o‘rnatish to‘g‘risidagi takliflariga rozilik berilganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.
- Ushbu qaror ijrosini samarali tashkil qilishga mas‘ul va shaxsiy javobgar etib tuman davlat soliq inspeksiyasi boshlig‘i J.Anvarov belgilansin.
- Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari A.Abdusalomov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov

